



O'QUVCHILARNING NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLAR ROLI

Yorkulova Go'zal Shuhratovna

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi, 4- kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20522627>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Published: 30th May 2026

KEYWORDS

Nutq kompetensiyasi, interfaol metodlar, aqliy hujum, klaster, INSERT, debat, rol o'ynash, kommunikativ kompetensiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'рни va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarda tahlil qilingan. "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Debat", "Rol o'ynash" kabi interfaol metodlarning nutqni faollashtirishdagi samarasi, ularning muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ijodiy nutqni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanishning mexanizmi, afzalliklari, amaliy natijalari va mavjud muammolar haqida ilmiy xulosalar berilgan.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchida mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, o'z fikrini ravon ifodalash va adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda nutqiy faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, o'zbek tili fanida o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Nutq kompetensiyasi bu o'quvchining og'zaki va yozma nutqda mazmunni anglash, fikrni mantiqan izchil, grammatik jihatdan savodli va kommunikativ vaziyatga mos tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. Bu kompetensiyaning shakllanishi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki interfaol metodlar orqali tashkil etilgan faol ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda pedagogik amaliyotda "klaster", "INSERT", "aqliy hujum", "B-B-B", "sinkveyn", "debat", "rol o'ynash", "blits savol-javob", "hamkorlikda o'qish" kabi interfaol metodlarning qo'llanishi kengaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarni dars jarayonining passiv kuzatuvchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularning nutqiy faolligini oshiradi, o'z fikrini asoslab berishga undaydi. Interfaol metodlar o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlashga, muloqot qilishga, bahslashishga va fikr almashishga o'rgatadi, bu esa nutq kompetensiyasining asosiy komponentlari muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, mustaqil nutq, kreativ yondashuv kabi sifatlarni shakllantiradi.

Ta'lim tizimining raqamli axborot vositalari bilan boyib borishi o'quvchilarda nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini

yaratmoqda. Ammo shunga qaramay, maktab amaliyotida o'quvchilarning nutqiy faolligi yetarli darajada shakllanmayotgan holatlar kuzatiladi. Ko'plab darslarda o'qituvchi markazda turib, o'quvchi faqat tinglovchi sifatida qatnashayapti, bu esa nutq kompetensiyasining sust rivojlanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlarning dars jarayoniga samarali integratsiyasi o'quvchilarning nutq faoliyatini faollashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Nutq kompetensiyasi o'quvchining og'zaki va yozma muloqotda mazmuni anglash, uni izchil, aniq va mantiqiy ifodalash, nutqning uslubiy me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchining kundalik hayotda, ta'lim jarayonida, kasbiy faoliyatda samarali suhbatdosh bo'lishiga yordam beradi. Nutq kompetensiyasining shakllanishida o'qituvchi tomonidan tanlangan ta'lim metodlari, o'quv muhitidagi faol kommunikativ vaziyatlar va o'quvchining shaxsiy faolligi hal qiluvchi omildir.

An'anaviy dars jarayonida o'quvchilar ko'proq yod olish yoki tayyor bilimni qabul qilishga yo'naltiriladi. Ammo nutq kompetensiyasi faqat faol muloqot, fikr almashish, bahs-munozara, mustaqil tahlil qilish jarayonida shakllanadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim interfaol, muloqotga asoslangan metodlarni qo'llashni talab qiladi.

Interfaol metodlar bu o'quvchining bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan, muloqot, hamkorlik, fikr almashish asosida tashkil etiladigan pedagogik texnologiyalar majmuidir. Ularning nazariy asosi Vygotskiy, Bruner, Kolb, Dewey kabi olimlarning konstruktivistik pedagogika tamoyillariga borib taqaladi. Konstruktivizmga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol jarayon orqali o'rganish, izlanish, tahlil va muhokama qilish orqali hosil qiladi.

Interfaol metodlar:

- o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- muloqot madaniyatini shakllantiradi;
- nutqiy faoliyatga undaydi;
- o'quvchining shaxsiy fikriga tayanadi;
- o'zaro hamkorlikda o'rganishni rag'batlantiradi.

Bu omillar o'zaro uyg'un holda nutq kompetensiyasining shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Interfaol metodlar nutq kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi: muloqotga kirishish va munozara yuritish; nutqni izchil qurish; so'z boyligini oshirish; o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash; fikrni asoslash va himoya qilish; tinglash madaniyati. Interfaol metodlarning o'quvchilar nutqiy rivojiga ta'sir mexanizmi uch bosqichda namoyon bo'ladi:

Motivatsiya bosqichi: o'quvchi mavzuga qiziqadi, savollar tug'iladi, muloqotga tayyorlanadi.

Faol muloqot bosqichi: fikr almashish, bahs-munozara, guruhda ishlash natijasida nutq shakllanadi.

Refleksiya bosqichi: o'quvchi o'z nutqini tahlil qiladi, xatolarini ko'radi, xulosalar chiqaradi. Ushbu bosqichlarning barchasi o'quvchining og'zaki va yozma nutqini faollashtirishga xizmat qiladi.

"Aqliy hujum" Metodi. Bu metod o'quvchilarning tezkor fikrlashini, nutqiy faolligini oshiradi. O'quvchilar erkin fikr bildiradi, yangi g'oyalarni taklif etadi, bunda nutqning izchilligi va

grammatik mustahkamligi rivojlanadi. "Aqliy hujum" o'quvchini qo'rqmasdan gapirishga o'rgatadi, bu esa nutq kompetensiyasining boshlang'ich ko'rsatkichidir.

"Klaster" Metodi. "Klaster" o'quvchilarning g'oyalarni tizimlashtirish, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish, matn asosida fikrlar zanjiri yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi so'z boyligidan faol foydalanadi va fikrni tartib bilan bayon etishga o'rganadi.

"INSERT" Metodi. Bu metod matn bilan ishlash jarayonida o'quvchining o'qilgan ma'lumotlarga munosabatini mustahkamlaydi. Har bir belgi (V-bilaman, + -yangi, tushunarsiz, ? savol tug'ildi) orqali o'quvchi o'qish jarayonida muloqotga kirishadi va matn asosida nutqiy tahlil qiladi.

"Debat" Metodi. Debat jarayoni o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi: dalil va isbot keltirish, fikrni himoya qilish, muloqotda o'zini tutish, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish. Debatlar o'quvchilarning og'zaki nutqini kuchli ravishda faollashtiradi.

"Rol o'ynash" Metodi. Bu metod kommunikativ vaziyatni modellashtirish va real hayotiy muloqotga tayyorlashda samaralidir. O'quvchilar turli rollarni ijro etish orqali nutq madaniyatini, intonatsiya, pauza, muloqot strategiyalarini amaliy o'rganadilar.

"Sinkveyn" Metodi. O'quvchining so'z boyligini kengaytiradi, bitta tushunchani qisqa, ixcham va mazmunli qilib bayon qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar qo'llangan darslarda: o'quvchilar savollar berishga va fikr bildirishga ko'proq intiladi; fikrni mustaqil shakllantirish darajasi ortadi; og'zaki va yozma nutqda faollik sezilarli kuchayadi; dars jarayonida o'quvchining ishtiroki 2-3 baravar oshadi; o'zaro tinglash va hurmat bilan muloqot qilish madaniyati rivojlanadi. Bu esa o'quvchilarning umumiy nutq kompetensiyasi sifat jihatidan o'sishiga olib keladi. Shuningdek, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda kamroq uyalish, erkin fikr bildirish, muloqotga kirishish kabi psixologik omillar ham sezilarli ravishda ijobiy tomonga o'zgaradi. Har qanday metod singari interfaol yondashuvlar ham ayrim cheklov va qiyinchiliklarga ega: sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi metodni to'liq qo'llashga qiyinchilik tug'diradi; vaqtning cheklanganligi sababli ayrim metodlar chuqur qo'llanmay qoladi; barcha o'quvchilarning faolligini bir xil darajada ta'minlash qiyin; o'qituvchilar uchun metodik tayyorgarlik yetarli darajada bo'lmasligi mumkin. Shunga qaramay, interfaol metodlarning to'g'ri tanlanishi va o'qituvchining metodik mahorati bu muammolarni bartaraf etishi mumkin.

XULOSA

O'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Nutq kompetensiyasining shakllanishi o'quvchining faolligi, muloqotga kirishishi, mustaqil fikrlashi va o'z fikrini aniq, izchil, grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash ko'nikmalariga bog'liq. Ushbu jarayonda interfaol metodlarning o'рни beqiyosdir. "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Debat", "Rol o'ynash", "Sinkveyn" kabi metodlar o'quvchining nutqiy faolligini oshiribgina qolmay, balki unda muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, og'zaki va yozma nutqda mustaqil fikrni ifodalash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Amaliy tajribalar interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilar faolligi keskin oshganini, nutqiy muloqot yaxshilanganini, o'quvchi fikrlarining izchilligi va mazmuniy boyligi ortganini ko'rsatadi. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilarda matn bilan ishlash, tahlil qilish, dalillash, o'z fikrini himoya qilish kabi nutq kompetensiyasining asosiy komponentlari puxta shakllanadi. Shu bois, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish jarayonida interfaol metodlarning tizimli ravishda qo'llanishi, o'qituvchining metodik mahorati va dars

jarayonining raqamli vositalar bilan boyitilishi o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Jalolov J. Chet tillarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
3. Yo'ldoshev J., Qosimova M. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Ziyodova S. Nutq madaniyati va nutq kompetensiyasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
5. G'ulomov A., Meliyev A. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Bruner J. The Culture of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1996.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Simon & Schuster, 1997.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim davlat standarti" haqidagi qarori. – Toshkent, 2020.

INNOVATIVE
ACADEMY